



SANOATGA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING JORIY HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Davlyatova Gulnara Muxamedjanovna
Farg'ona politexnika instituti dotsenti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a30

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat sohasida investitsiyalarni jalb etishning joriy holati, investitsiyalarni jalb etishda xorijlik olimlarning qarashlari, tahlillari, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sanoat sohasining o'рни va ahamiyati, soha rivoji uchun investitsiyalarni jalb etishning yo'nalishlari o'rganilgan. Sohaga oid muammolar aniqlanib, ularga tegishli tartibda xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, sanoat, korxonona, moliyalashtirish, kredit, portfel, resurs, qarz, mablag', davlat, kapital, iqtisodiyot, rivojlanish, yalpi ichki mahsulot, raqobat, mexanizm, investor, samaradorlik.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В ОТРАСЛЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Давлятова Гулнара Мухамеджановна
Доцент Ферганский политехнический институт

Аннотация. В данной статье рассматривается современное состояние привлечения инвестиций в промышленную сферу, взгляды, анализ зарубежных ученых в области привлечения инвестиций, роль и значение промышленной сферы для экономики нашей страны, направления привлечения инвестиций для развития отрасли. Выявляются проблемы, относящиеся к отрасли, и в соответствующем порядке делаются выводы и предложения.

Ключевые слова: инвестиции, промышленность, предприятие, финансирование, кредит, портфель, ресурс, долг, финансирование, государство, капитал, экономика, развитие, ВВП, конкуренция, механизм, инвестор, эффективность.

THE CURRENT STATE OF ATTRACTING INVESTMENTS IN INDUSTRY AND THE EFFECTIVENESS OF THEIR USE

Davlyatova Gulnara Muxamedjanovna
Ferghana Polytechnic Institute, associate professor

Annotation. This article explores the current state of investment attraction in the industrial sector, the views, analysis of foreign scientists in attracting investments, the role and importance of the industrial sector for the economy of our country, the directions of attracting investments for the development of the industry. Problems related to the field were identified and conclusions and suggestions were made in the appropriate order.

Keywords: investment, industry, enterprise, financing, credit, portfolio, resource, debt, funds, state, capital, economy, development, gross domestic product, competition, mechanism, investor, efficiency.

Kirish. Ilmiy nuqtayi nazardan sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish jarayonini o'rganish samarali investitsiya vositalariga moliyaviy resurslarning maqsadli investitsiyalarini aniqlashga, korxonalar tomonidan investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun maxsus investitsiya portfelini shakllantirishga, sanoatda investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam berdi. Korxonaning investitsion faoliyatini moliyalashtirish strategiyasi, asosan, uning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari va shakllariga asoslana-

di. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish usuli investitsiya resurslarini jalb qilish jarayonidir, moliyalashtirish shakli esa moliyalashtirish usulini amalga oshirish sharti sifatida ifodalanadi.

Sanoat sohasining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda foydalaniladigan moliyalashtirish usuli moliyalashtirishning o'ziga xos shakllariga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ma'lum bir usul doirasida aniqlangan shakllar ularning iqtisodiy tabiati bilan birlashtirilgan bo'lib, bu ularga investitsiyalarni moliyalashtirishning o'zi-

ga xos usuliga tegishli bo'lishiga imkon beradi. Masalan, korxonalar tijorat bankidan kredit olishi yoki investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun lizing kompaniyasi xizmatlaridan foydalanishi mumkin, bu qarzni moliyalashtirishga misol bo'lishi mumkin, garchi biz ularni moliyalashtirish usuli deb hisoblasak ham, lizing firmalarining xizmatlaridan foydalanish qaytarish shartlariga javob beradi va ularni yagona moliyalashtirish usuli ostida birlashtirishga imkon beradi.

Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish jarayonini o'rganganimizda, sanoat korxonalarini faoliyatini moliyalashtirish usullari xilma-xilligini aniqlaymiz. Biz ularni quyidagicha ifodalashimiz mumkin [5]:

- korxonaning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (o'z mablag'lariga kompaniyaning foydasi, amortizatsiya to'lovlari, maxsus tashkil etilgan rivojlanish fondlari kiradi);

- qarzlarni moliyalashtirish (kreditlar, o'zaro fondlar, venchur fondlari, lizing, obligatsiyalar);

- qarzni moliyalashtirish va tez qaytariladigan investitsiya obyektlariga kapital qo'yish uchun ishlatiladi;

- qarz mablag'laridan moliyalashtirish (aksiyalarni fond bozorida joylashtirish va unda ishtirok etish orqali olingan mablag'lar);

- davlat moliyalashtirish (budget investitsiya xarajatlari, maqsadli dasturlar, davlat tashqi qarzi).

Davlat mablag'lari yuqori samarali investitsiya loyihalari, maqsadli investitsiya dasturlari va davlat tashqi kreditlarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Yuqori samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish so'nggi yillarda mamlakat investitsiya siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu iqtisodiyot uchun yangi yo'nalish bo'lib, asosiy vazifa budget mablag'larini yetakchi tarmoqlarga yo'naltirish, davlat tashqi qarzlarni jalb qilishdir. Sanoat sohasida investitsiyalarni jalb qilishda aralash moliyalashtirish turlaridan ham foydalanish mumkin. Bu o'z mablag'lari hisobidan ham, qarz va qarz mablag'lari hisobidan ham investitsiya resurslarini shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday holda moliyalashtirishning bir necha usullaridan foydalanishga e'tibor berish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada sanoat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishning usullari joriy holati analitik, statistik, adabiyotlarning qiyosiy tahlillaridan foydalangan holda o'rganildi. Muammolarni ochib beruvchi asosiy tahlillar qiyosiy va statistik usullardan foydalangan holda yoritib berildi. Tadqiqot obyekti

sifatida sanoat sohasi korxonalarida investitsiyalarni jalb etish darajalari o'rganildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.V.Gnezdova va boshqalar sanoatda investitsiyalarni jalb etishda tashqi iqtisodiy kompleks mintaqaviy investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy mexanizmlaridan biri deb hisoblaydi. Xorijiy investitsiyalar oqimini jalb etish, shunga mos ravishda, xalqaro biznesni tashkil etish va rivojlantirish uchun deyarli barcha sanoat tarmoqlari tomonidan talab qilinadi [1].

M.V.Hobrei mintaqaviy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriligini ko'rsatib, investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash, infratuzilmani yaxshilash va hokazolar uchun shartdir, deb biladi. Shundan kelib chiqib, sanoatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun investitsiya daromadlarini ko'paytirish va hududlarda investitsiya faoliyatini yaxshilash zarurligini ta'kidlash mumkin. Ko'pincha, sanoat iqtisodiyoti rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan investitsiya daromadlarining to'liq yo'qligi yoki yetarli emasligi natijasida sanoatning rivojlanishi keskin sekinlashadi. Shuning uchun sanoatda investitsiya daromadlarining turli darajalari potensial investorlar uchun kelishi mumkin bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi [2].

P.A.Gupta investitsiyalarni sanoatga jalb qilish mamlakatimizdagi barcha davlatlar shug'ullanadigan izlanishligini keltirib o'tgan. Har bir davlat xorijiy va ichki investitsiyalarni xalqaro va milliy darajada jalb qilishda bir-biridan ustun turishga harakat qilmoqda. Olim Hindiston misolida o'z izlanishlarini olib borib, hukumat, o'z navbatida, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatda sanoat tarmoqlarini tashkil etish bo'yicha faol ish olib borayotganligini ko'rsatib bergan [3].

G.G.Hu o'z asarlarida sanoatga investitsiyalarni jalb etish va texnologik innovatsiyalar masalasi, ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobida juda katta ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Shu nuqtayi nazardan ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun ushbu harakat 1990-yildan 2017-yilgacha bo'lgan ma'lumotlardan foydalangan holda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika (BRICS) mamlakatlarining sanoatga investitsiyalarning determinantlarini empirik ravishda o'rgangan. Bundan tashqari ushbu tadqiqot inson kapitalining import, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va texnologik taraqqiyot orqali o'zaro munosabatlarga vositachilik qilishdagi rolini o'rganishga qaratilgan. Kointegratsiya usuli natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilgan

beshta modelning barchasida o'zgaruvchilar o'rtasida barqaror, uzoq muddatli muvozanat munosabatlari mavjud. AMG usulining natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatda yalpi ichki mahsulot, inson kapitali, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish xarajatlari va sanoatga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'payishi BRICS iqtisodiyotida texnologik innovatsiyalarni oshirishini ko'rsatib berdi [4].

S.Barrios, H.Görg, E.Strobl to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sanoat sohasida mahalliy firmalarning rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ikkita ehtimoliy ta'siriga e'tibor qaratib: mahalliy firmalarga investitsiyaning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi raqobat effekti va mahalliy sanoatning rivojlanishiga yordam beradigan tashqi investitsiyalarni tahlil qiladilar. Raqobat effekti dastlab mahalliy firmalarga investitsiyaning kirib kelishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy qiymatining kamayishiga sabab bo'lmaganini isbotlab berdi [5].

T.Sueyoshi, M.Goto sanoat iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar miqdori mahalliy iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun texnologik innovatsiyalarga sarmoya kiritish uchun ishlatilishi lozim deb hisoblaydi. Ushbu tadqiqotda taklif qilingan yondashuv natijalari asosida aytish mumkinki muallif jalb etilgan investitsiyalarni sanoatda texnologik jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirish kerakli haqida gapirib o'tadi [6].


A.Razikov O'zbekiston yengil sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlash, xalqaro iqtisodiyot tizimini integratsiyalash, tashqi savdoni kengaytirish, mamlakat

eksport salohiyatini rivojlantirish va pirovardida iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini oshirishga ko'maklashishi haqida to'xtalib o'tgan [7].

I.R.Oltinovich sanoat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalarni yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlashda investitsiya faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirish lozimligini keltirib o'tadi. Shu bois mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Shu maqsadda markazlashgan, markazlashtirilmagan fondlar, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni rivojlantirish, ulardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [8].

Tahlil va natijalar muhokamasi. Sanoat sohasiga investitsiyalarni jalb etish orqali rivojlantirish unga kirib kelayotgan mablag'larning moliyalashtirilishi bilan ahamiyatlidir. Sanoatni moliyalashtirishning ushbu usuli yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ularning har tomonlama ekspert tahlilini o'tkazish va moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash orqali loyihalarining samaradorligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Sanoatda investitsiyalarni jalb etish faoliyatining mazmuni, bir tomondan, davlat, mintaqaviy tuzilmalar, maxsus fondlar, shu jumladan, investitsiya fondlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslanadi, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik subyektlari (korporatsiyalar, tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) ta'siri shaklida ifodalaniishi mumkin.



1-rasm. Sanoatning o'sish sur'ati (%da) [9]

Investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish moliyaviy va budjet qonunchiligi, investitsiya faoliyatining moliyaviy mexanizmi, investitsiya siyosati kabi moliyaviy toifalar orqali amalga oshirildi. Investitsiya siyosati iqtisodiyotda obyektiv faoliyat ko'rsatadigan va asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan omillar bilan shakllanadi. Investitsion resurslarni shakllantirish va jalb qilish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar investitsiya faoliyatining moliyaviy mexanizmini tashkil etadi, bu esa o'z navbatida, moliyaviy resurslarni boshqarish, taqsimlash va nazorat funksiyalari shaklida ifodalanadi.

1-rasm ma'lumotlari asosida aytish mumkin, sanoat sohasining viloyatlar kesimida o'sish sur'atlarini kuzatadigan bo'lsak, 2022-yil hisobida 2021-yilga nisbatan hisoblab ko'rsak 7,6 %ga kamayganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yil 1 choragida Andijon viloyati 139,9 % ko'rsatkich bilan eng yuqori natijalarni qayd etdi, ammo bu ko'rsatkich yil oxiriga kelib, 122,6 %ni tashkil etdi. 2023-yil boshidan 3-choragigacha esa ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan. Sanoat sohasini rivojlantirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish shuning uchun ham dolzarbdir.

Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimini tashkil etishda, birinchi navbatda, quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratish lozim:

- tizimning maqsadga muvofiqligi;
- moliyalashtirishda qo'llaniladigan usul va mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi, izchilligi, asosiligi va huquqiy xavfsizligi;
- investitsiyalarni jalb etish manbalarining ko'pligi va ularning tegishli kombinatsiyasi;
- tizimning kengligi va murakkabligi;
- moslashuvchanlik.

Ushbu tamoyillarning amalga oshirilishi natijasida investitsiya jarayonida moliya-kredit munosabatlariga vositachilik qiladigan usullar, shakllar, moliyaviy, budjet va soliq vositalari va imtiyozlar majmuyi sifatida investitsiya siyosatini ishlab chiqish orqali sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga kompleks va tizimli yondashuvni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar sanoat sohasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga olib keldi, ammo tadqiqotlar va natijalar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar hali ham mavjud. Bu sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faolligi va investitsiyalarning pasayishiga olib keladi. Natijada sanoat korxonalarining iqtisodiy faolligini oshirish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini yaratish zarurati asosiy maqsadga aylandi.

1-jadval

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (ming so'm) [10]

Klassifikator	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
O'zbekiston Respublikasi	7141	9604,9	10771,8	13061,9	15520,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5879,3	6759,9	7316	8589,6	8981,4
Andijon viloyati	9033,2	10694	11519,2	11156,6	16529,9
Buxoro viloyati	4575,1	7750,3	9080,1	10587,4	13647,2
Jizzax viloyati	2675,6	3354,4	4170,8	6253,4	7812,5
Qashqadaryo viloyati	4568	6270,9	4417,4	5567,2	6566,7
Navoiy viloyati	23568,9	44963,4	64737,5	71925,7	80786,1
Namangan viloyati	2416	3169,9	3878,7	5068,6	6112,9
Samarqand viloyati	3587,7	4112,3	4698,6	5723,6	7163,2
Surxondaryo viloyati	1272,4	1627,7	2004,8	2461,4	2605,5
Sirdaryo viloyati	6274,3	8702	9361,5	11282,8	13532,3
Toshkent viloyati	13099,2	18315,4	22356,3	28622,3	31664,5
Farg'ona viloyati	3728	5019,6	5732	7195,5	7698,4
Xorazm viloyati	3547,3	4612,7	5009,6	7155,5	9439,5
Toshkent shahri	17397,3	20760	25052,6	31976,2	37398,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining aholi joy boshiga to'g'ri keladigan ulushi 2022-

yilda 2021-yilga nisbatan 2 458,3 ming so'mga yoki 18,8 %ga ortganini ko'rish mumkin, bu ijobiy holat, albatta.

Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini yaratish investitsiya jarayonida mavjud loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar manbalarini topish, yangi moliyalashtirish manbalarini yaratish, investitsiyalarning yangi usullaridan foydalanish holda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, investorlarni qondirish, investitsiya muhitini yaratish, mustahkam yuqori samaradorlikka erishish uchun poydevor vazifasini o'taydi.


Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va uni iqtisodiy sharoitlar nuqtayi nazaridan takomillashtirish, birinchi navbatda, yaratilgan investitsiya muhiti va mamlakatda huquqiy tizimning ishlashiga bog'liq. Ushbu investitsiya muhiti va huquqiy tizim investorlarning qiziqishini oshirish, moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, mablag'larni faollashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish, turli imtiyozlardan foydalanish va korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilashga olib keladigan mexanizmning ajralmas qismidir.

Hozirgi kunda sanoat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar sohadagi korxonalarining

investitsion faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Ma'lumki, mamlakatimiz sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati, asosan, bank kreditlari va investorlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Xususan, sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini fond bozori orqali qarzlar, lizing va xorijiy investorlar orqali moliyalashtirish darajasi juda past.

YaIMda sanoatning ulushi oshgani sayin tijorat banklari sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun kredit-moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondira olmaydi. Shunday qilib, sanoat korxonalarini uchun turli xil moliyalashtirish manbalarini topish qiyin. Shuning uchun sanoat korxonalarini o'zlarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, moliyalashtirish manbalarini izlash uchun davlat, moliyaviy vositachilar va fond bozorlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, sanoat yo'nalishida ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni ham sanoat sohasining rivojlanishiga turtki bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Sanoat yo'nalishida ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni [11]

2-rasm ma'lumotlari yordamida aytish mumkinki, mamlakatimiz sanoat sohasida investitsiya jozibadorlik ko'rsatkichi yuqoriligi sababli 2023-yil noyabr oyida 2023-yil yanvar oyiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar soni 115 taga yoki 2,5 %ga oshgan. Bunday ijobiy ko'rsatkichlar, xorijiy kapitalning kirib kelishi soha rivoji va aholi bandligiga ham o'z hissasini qo'shadi

Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining eng muhim qismi davlat kredit tizimidir. Bugungi kunda kredit tizimi sanoat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatdagi kredit tizimining holati nafaqat davlatning bank tizimiga, balki kredit uyushmalari va tadbirkorlik subyektlari (sanoat korxonalarini) bilan ham bog'liq. Iqtisodiyotda yaratilgan va shakllangan kredit tizimining

roli unga pul resurslarini to'plash va qayta taqsimlash markazi sifatida katta mas'uliyat yuklaydi.

Shuning uchun barcha mijozlar, omonatchilar, sheriklar va investorlar kredit tizimining muhim qismi bo'lgan har qanday tijorat banklarining barqarorligi va ishonchliligiga to'liq ishonishlari kerak. Kredit tizimining to'g'riligi sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaganligi sababli, shuni ta'kidlash kerakki, kredit tizimi kredit mexanizmi orqali ishlaydi.

Kredit mexanizmi kreditlash, investitsiya, vositachilik, konsalting, jamg'arma, qayta taqsimlashning barcha jihatlarini o'z ichiga oladi. Kredit mexanizmi quyidagi munosabatlardan iborat:

1) pul resurslarini to'plash va safarbar qilish uchun kredit tashkilotlari va iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar tizimi;

2) mavjud kapital bozorida kredit tashkilotlarining o'zlari o'rtasida pul resurslarini qayta taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar;

3) kredit tashkilotlari va xorijiy mijozlar o'rtasidagi munosabatlar.

Ko'rib turganimizdek, kredit tizimining asosiy ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, banklar va nobank tashkilotlar o'rtasidagi raqobat past va iqtisodiyotni kreditlash, asosan, tijorat banklari zimmasiga yuklanganiga qaramay, kredit tashkilotlariga kredit berishda ijobiy tendensiyani ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, sanoat korxonalarini faoliyatini, shu jumladan, investitsiyalarni moliyalashtirishda mamlakatdagi kredit tizimi ishtirokchilari o'z funksiyalari va maqsadlarini bajarishda ularni qo'llab-quvvatlaydilar. Biz bilamizki, kredit tizimi ko'payish va iste'mol qilish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida asimmetrik ma'lumotlarni olish muammosini bartaraf etadi, shuningdek, kredit tizimining moliya tizimi bilan integratsiyalashuvi va sanoat korxonalarini o'rganish investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullarini ko'rib chiqishda kredit tizimini alohida o'rganish uzoq tarixiy rivojlanishni boshdan kechirgan murakkab iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishga asoslanganligini hisobga olish kerak. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, kredit tizimini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) markaziy va tijorat banklari hamda nobank kredit tashkilotlari tomonidan taqdim

etiladigan kredit munosabatlarini tashkil etuvchi moliya-kredit munosabatlari majmuyi;

2) kreditning turli shakllari, kreditlash usullari, shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari bilan tavsiflangan kredit munosabatlari to'plami.

Kredit tizimini aniqlashning birinchi jihati institutsional shaklni tavsiflaydi. Kredit tizimi banklar va boshqa kredit tashkilotlari yig'indisi, kredit operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy shakllari va yondashuvlari bilan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda sanoat korxonalarining takror ishlab chiqarish funksiyasini rivojlantirish uchun investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya jarayonini samarali o'tkazish va ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag'batlantirish muhimdir. Bu investorlarni investitsiya qarorlarini qabul qilishga undaydi va mablag'larini investitsiyalarga aylantirishni tezlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarida investitsiya jarayonini rag'batlantirish va investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilishning ushbu yo'nalishlari real sektor korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlamoqda. Bundan tashqar, sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va dastur doirasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda moliya bozori ishtirokchilari va moliyaviy vositachilar bilan strategik sheriklik mexanizmini yaratish muhimdir.

Sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimi quyidagi yo'nalishlarda modernizatsiya qilinishi kerak:

1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun zaxiralarni aniqlash, ulardan investitsiya jarayonida foydalanish.

2. Sanoat korxonalarini tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat institutlarining ishtirokini ta'minlash uchun loyiha davlat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

3. Moliya-kredit munosabatlari, soliq va investitsiya jarayonlari va sanoat korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi va ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy bazani yaratish.

4. Bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini optimallashtirish, kreditlar hajmi va muddati bo'yicha innovatsiyalarni yaratish, sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarining davlat uchun iqtisodiy ahamiyatiga qarab soliq imtiyozlarini qo'llash.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gnezdova J.V. et al. Attraction of Foreign Investments as A Condition for Regional Industrial Development in Russia. // Amazonia Investiga. 2019. T. 8. №. 20. C. 263-270.
2. Hobrei M.V. Attracting Direct Investments in the Regions of Ukraine and Their Impact on the Economic Development of the Transcarpathian Region. // Scientific Bulletin of Mukachevo State University. Series "Economics". 2020. T. 1. №. 13. C. 147-151.
3. Gupta P.A. Roadmap for Attracting Investment and Industry for Economic Development of States. // Administration in India. – Routledge, 2023. C. 125-133.
4. Hu G.G. Is knowledge spillover from human capital investment a catalyst for technological innovation? The curious case of fourth industrial revolution in BRICS economies. // Technological forecasting and social change. 2021. T. 162. C. 120-127.
5. Barrios S., Görg H., Strobl E. Foreign direct investment, competition and industrial development in the host country. // European economic review. 2005. T. 49. №. 7. C. 1761-1784.
6. Sueyoshi T., Goto M. Investment strategy for sustainable society by development of regional economies and prevention of industrial pollutions in Japanese manufacturing sectors. // Energy Economics. 2014. T. 42. C. 299-312.
7. Razikov Akmal Perfection of the mechanism of attracting foreign investments in light industry of the Republic of Uzbekistan. // European journal of economics and management sciences. 2016. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/perfection-of-the-mechanism-of-attracting-foreign-investments-in-light-industry-of-the-republic-of-uzbekistan>.
8. Oltinovich I.R. Improving the mechanisms of attracting investment in the economy. // Asia pacific journal of marketing & management review. ISSN: 2319-2836. Impact Factor: 7.603. 2022. T. 11. №. 04. C. 28-33.
9. <https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
10. <https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2257/meta-data>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI UMUMIY HAJMINING STATISTIK TAHLILI

Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich

Toshkent moliya instituti

Statistika va ekonometrika kafedrası professori,

iqtisodiyot fanlari doktori DSc

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a31

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining statistik tahlili, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati samaradorligini statistik baholash, ularning mahsulot (xizmat)lariga ta'sir etuvchi omillarni statistik o'rganish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, agrosanoat majmuyi, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, mahsulot (xizmat)lar, statistik tahlil.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕГО ОБЪЕМА ПРОДУКЦИИ (УСЛУГ) СЕЛЬСКОГО, ЛЕСНОГО И РЫБНОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Маматкулов Бахтиёр Халмурадович

Ташкентский финансовый институт

профессор кафедры «Статистика и эконометрика»,

доктор экономических наук

Аннотация. В статье статистический анализ общего объема сельского, лесного и рыбного хозяйства, эффективность сельского хозяйства, лесного хозяйства и рыболовства, их продуктов (услуг) рассмотрены как статистическое исследование факторов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, АПК, растениеводство, животноводство, охота, продукция (услуги), статистический анализ.